

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

PROTOTIP VA ESTETIK IDEAL MASALASI

Sanobar TO‘LAGANOVA,
Filologiya fanlari doktori (DSc)
O‘zR FA O‘zbek tili adabiyoti va folklori inistituti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15292167>

Annatsiya: Maqolada prototip va estetik ideal masalasi bir biriga bog‘liqlikda o‘rganilgan. Estetik ideal masalasini o‘rganishda ijodkor shaxsi, tarjimai holi, muallifning jamiyatdagi mavqei ham e‘tiborda tutish lozim. Obrazning hayotiy asosi bo‘lgan prototip masalasi muallif tarjimai holiga borib taqaladi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi Kumush obrazi yozuvchining estetik ideali sifatida jonlanadi. Kumushning prototipi bo‘lgan Oykumushning qiyofasi muallif xotirasida saqlangan, qayta ishlanib badiiyat hodisasiga aylangan. Estetik idealda muallif shaxsi, tafakkur ko‘lami, estetik didi, jamiyatga munosabati aks etadi.

Kalit so‘zlar: prototip, estetik ideal, ijodkor shaxsi, Oykumush.

Аннатоция: В статье рассматривается взаимосвязь прототипа и эстетического идеала. При изучении вопроса об эстетическом идеале необходимо учитывать личность автора, его биографию, место в обществе. Вопрос о прототипе, являющемся жизненной основой образа, тесно связан с биографией автора. Образ Кумуш в романе Абдуллы Кадыри «Минувшие дни» представлен как эстетический идеал писателя. Образ Ойкумуш, прототипа Кумуша, сохранился в памяти автора, переработан и преобразен в произведение искусства. Эстетический идеал отражает личность автора, кругозор, эстетический вкус, отношение к обществу.

Ключевые слова: прототип, эстетический идеал, творческая личность, Ойкумуш.

Annattocia: The article examines the issue of prototype and aesthetic ideal in relation to each other. When studying the question of the aesthetic ideal, it is necessary to take into account the personality of the author, his biography, and place in society. The issue of the prototype, which is the vital basis of the image, is closely related to the author's biography. The image of Kumush in Abdulla Qadiri's novel "O'tkan kunlar" becomes the writer's aesthetic ideal. The image of Oykumush, the prototype of Kumush, was preserved in the author's memory, processed and turned into an artistic phenomenon. The aesthetic ideal reflects the author's personality, scope of thinking, aesthetic taste, attitude to society.

Keywords: prototype, aesthetic ideal, creative personality, Oykumush.

Badiiy asar yaxlit bir shaharga o‘xshaydi. Ijodkor asar loyahasini bunyod etar ekan, shahar aholisi, uning qurilmasi, turli mavqedagi odamlari, ularning ruhiy holati va kayfiyatini mantiqiy asosga ko‘ra tasvirlaydi. Obrazlar tarkibi ham muallif loyihasi asosida tartibga solinadi. Asardagi personajning harakatlanish maydoni asar kompozitsiyasidagi o‘rniga ko‘ra belgilab olinadi. Har bir ishtirokchining vazifasi, o‘rni, funksiyasi muallif rejasiga binoan shakllantiriladi. Asar qahramoni va undagi obrazlar guruhi muallif ko‘zlagan g‘oyasini amalga oshirish uchun yagona bir markaz atrofida birlashadi. Obrazlar strukturasi har bir personajning o‘z o‘rni va vazifasi

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

belgilangan bo‘ladi.

Adabiyotshunoslikda hayotiy haqiqatning badiiy voqelikka aylanishi, qahramon, obraz, personaj kabi masalalar doimo jiddiy muammo sifatida o‘rganilib kelinmoqda. Qahramon va prototip, estetik idealning hal etilishi kabi masalalar adabiyotshunoslikning muhim muammosi sanaladi. Asar qahramonini o‘rganish jarayonida prototip masalasiga ham e‘tibor qaratiladi. Obrazning prototipi bormi, bo‘lsa u kim, qaerda yashagan, yozuvchiga qanday aloqasi bo‘lgan kabi savollar har doim dolzarb bo‘lib qolavergan. Aslida, har bir obrazdan prototip qidirish to‘g‘rimikin? Adabiyotshunoslikka qay darajada foydasi bor? Quyida shu savollarga javob qidirib ko‘ramiz.

A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi Kumush obrazi alohida diqqatga molik qahramon. Yozuvchi Kumushni tanishtirishidayoq qahramonga nisbatan o‘zining munosabatini ochiqalaydi. Samimiy mehr, ayricha ixlos, muhabbat sezgisi bilan tasvirlaydi-ki, bu iliqlik albatta kitobxonga ham yuqishi tayin. Ayni shu samimiyat va mehrda Abdulla Qodiriyning estetik ideali mujassam. Aslida, ”badiiy obraz voqelik, hayotiy mushohadalarni, taassurotlarni ijodkor dunyoqarashi, estetik ideali orqali qayta ishlanishi oqibatida yangidan yaratilishidan iborat” . [1.8.]

Estetik ideal tushunchasi dastlab ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, uning ildizlari qadimgi yozma bitiklar va folklorga borib taqaladi. Diniy manbalarga ko‘ra komillik eng yuksak maqom sifatida insoniyatni ezgulik va ma‘rifatga yo‘llaydi. Estetik ideal shakllanishiga ko‘ra ierarxik-tadrijiy xususiyatga ega. Estetik idealda muallif shaxsi, tafakkur ko‘lami, estetik didi va ahloqiy tutumlari hamda jamiyat hayotidagi o‘rni, mavqe ham aksini topadi. Ideal shakllanishida millat, til, din kabi muhim omillar salmoqli o‘rin tutadi. Shunday ekan qahramon nafaqat ijodkor ideali, balki uning estetik didi, badiiy idroki va anglamini o‘zida aks etiradi. Aslida, asar mohiyatini anglashda ijodkor shaxsi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda ilgari surilgan g‘oyani ochishda kalit vazifasini bajaradi.

Badiiy asar betakror, unda ijodkor shaxsi yiltillab o‘ziga ishora qilaveradi. Shu bois “biografik yondashuv ijodkor shaxsi orqali asar mohiyatini anglashning muhim omili” deb qaraladi [2.356.]

Yozuvchi real voqelik va faktlarini umumlashtirib badiiy obrazga aylantirishda syujet talabi va ehtiyojidan kelib chiqib masalaga yondashadi. Muallif va estetik ideal bilan bog‘liq muammoni o‘rganish maqsadida sevimli yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning tarjimai holiga nazar soldik. Muallifning “O‘tkan kunlar” romanida barchaning sevimli qahramoniga aylangan Kumush obrazi haqida to‘xtalmoqchimiz.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Xo‘sh, Kumush obrazining prototipi bormi, bo‘lsa kim?

Abdulla Qodiriy roman prologida aytib o‘tganidek, Shirin, Zuhra kabi Sharq go‘zallaridan ilhomlandi, havaslandi. Kumush obrazi tasvirida Sharq an‘analariga ergashish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Qahramonni taqdim etishdagi bayon va tasvir usuli sharq poetikasining ta‘siri ekanligini sezish qiyin emas. Asar voqealari tizimida Kumushbibi yozuvchining estetik ideali sifatida jonlanadi. Zero, Kumushbibi muallif orzu qilgan, istagan, izlagan o‘zbek xonadonida tarbiya ko‘rgan malak, ya‘ni ijodkor tafakkurining hosilasidir.

Qodiriyshunoslikdagi dastlabki manbalardan biri H.Qodiriyning “Otamdan xotira”da shunday ma‘lumotga duch kelamiz. Yozuvchiga romandagi obrazlar hayotda bormi degan savol bir necha martalab berilgan, shunda u:

“ O‘zbek oyim – bu Josiyat bibing, Oftob oyim – Xonim bibing. Kumush esa – Oykumush opang, - deb kulganlarini xotirlayman Oykumush opam – qo‘ng‘iroqdek tovushli, aql-idrok, husnda haqiqatan ham Kumushni eslatuvchi edi” [3.163.]. Oykumush kim? Oykumush yozuvchining akasi Rahimberdining to‘ng‘ich qizi bo‘lib (1910-1929), yozuvchi uni o‘z qizidek ko‘rgan. 1923-24 yillarda bo‘lsa kerak, Toshkentda birinchi namuna ish maktabi (yotib o‘qiydigan maktab-internat) ochiladi. Biroq internatga dastlab yerli aholi bolalarini yubormaydi. Shunda o‘sha davrning ziyolilari boshqalarga ibrat bo‘lish uchun o‘z bolalarini internatga beradi. Abdulla Qodiriy qizi Nazifa va Oykumushni, G‘ulom Zafariy esa Siddiqa ismli qizini shu internatga o‘qishga bergan.

Sh.Qodiriyning “37-xonadon” kitobida shunday yoziladi: “Buvang (A.Qodiriy – S.T) Oykumush opamni o‘z farzandlaridan ham ortiqroq ko‘rardilar. Opam yoshliklaridan ziyrak o‘quvchi edilar. Oykumush aytgan qo‘shiq kabi hajviy she‘rlari qulog‘im ostidan nari ketmaydi. Mahallamizda Otincha degan ayol bo‘lar, Opam dutor chalishni Otinchadan maromiga yetkazib o‘rgangan. Oykumush opam ayni balog‘at pallasida 19 yoshida vafot etadilar. O‘shanda buvang juda kuyunib ketgandilar. Men Abdulla akamni yig‘laganlarini birinchi marotaba o‘shanda ko‘rgandim. Otincha opa ham Oykumush opamga o‘xshash oq-sariqdan kelganligi uchunmi, oyim doim ularni biznikiga olib chiqib, yig‘lab suhbatlashib o‘tirardilar” [4.66.].

Abdulla Qodiriy akasining qizi Oykumushni nihoyatda yaxshi ko‘rib, o‘z farzandlari bilan teng ko‘rgan. Oykumush favqulodda ziyrak, zehnli, eshitganini yodda olib qoladigan chiroyli qiz bo‘lganligi xotirlarda keltiriladi. Oykumush 19 yoshida kasallik tufayli vafot etgan. Go‘zal qiz Oykumushning vafoti butun

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

xonadonni qayg'uga soladi. Bir vaqtlar bobo xotirasida saqlangan orzu niyat sharafiga qo'yilgan Oykumushning o'limi armonga aylanadi. Oila orzusiga aylangan suluv kelinchakning ismi yozuvchi qulog'i ostida necha bor jaranglab, tasavvurida roman yaratilishidan ilgariroq sohibjamolning siymosi nur sochib Oykumushdan Kumushbibiga aylangan bo'lsa ajabmas...

Mushohada qilinsa, Oykumush vafot etgan paytda “O'tkan kunlar” romani xalq orasida mashhur bo'lgan. Oykumush roman yozilgandan keyin vafot etadi. Roman yozilgan kezlarda qizaloq bo'lgan Oykumush rostdan Kumushga prototip bo'la oladimi? Endi yana shu xotiralardagi keyingi ma'lumotga e'tibor qaratamiz. “Dadamning hikoya qilishlaricha, go'yo Qodir bobom (yozuvchining otasi – S.T) bir vaqtlar qozoq ovuliga qimizxo'rlikka borib, Oykumush ismli suluv bir qozoq kelinchagi qo'lidan qimiz ichgan va bu ismni sevib, nabiralariga qo'ygan emishlar. Dadam esa mazkur ismni ana shundan olgan ekanlar” [2. 165.]. Keyingi fakt haqiqatga bir oz yaqinroq keladi.

Izlanishlarga ko'ra adibning otasi Qodirmuhammad boboning muallif ijodiy tafakkurida alohida o'rni bor. Boboning kechmishi millat tarixi bilan chambarchas holda bog'liq. Ikki rus imperiyasini va Turkiston xonlarini ko'rgan, Toshkent bekligida harbiy mulozim bo'lib xizmat qilgan Qodirmuhammad ota yozuvchiga juda ko'p qimmatli ma'lumotlarni so'zlab bergan. Boboning xotiralari adib tafakkurida qayta sayqallanib, muallif tomonidan ishlov berilib go'zal badiiyat hodisasiga aylangan. E'tiborimizda bo'lgan Kumush obrazi tasvirida ham Qodirmuhammad otaning xotiralari zaxira vazifasini bajargan.

Shuni inobatga olish lozimki, roman yozilgan kezlarda Turkistonda hali ayollar to'la “ochilib” bo'lmagan edi. Shariat talabiga ko'ra nomahramlik tushunchasiga qa'tiy amal qilingan. Musulmon yurt sanalmish Turkistonda begona ayolni ko'rish, ular bilan muloqot qilish nojoiz sanalgan. Yuqoridagi izohda ham “Oykumush ismli suluv bir qozoq kelinchagi qo'lidan qimiz ichgan va bu ismni sevib” nabirasiga qo'ygani aytiladi. Kelinchakning ismiga alohida urg'u beriladi.

Abdulla Qodiriy ayollar obrazini, xususan, o'z oilasidan, yaqinlaridan olgan, o'rgangan. “Nasib etsa, qizimning ismini Oykumush qo'yaman”, deb niyat qilgan Qodirmuhammad boboning uch o'g'li bo'lib, qizi bo'lmagan. Shuning uchun to'ng'ich farzandi Rahimberdining qiziga shu ismni qo'ygan. Havasdan, ixlosdan idealga aylangan suluv kelinchakning ismi yozuvchining qulog'i ostida necha bor jaranglab, uning tasavvurida qizaloq Oykumush tug'ilishidan ilgariroq sohibjamol siymosi nur sochib turgan. Kumush obrazi Oykumush timsolida roman yaratilgunga

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

qadar yozuvchi tafakkurida “qolip”, model sifatida avvaldan bo‘lgan.

Shunday ekan Kumush obrazida har kim o‘z idealini ko‘rardi. Bu tabiiy hol. Abdulla Qodiriy bilganlari va kechirganlari asosida ko‘ngli tubidagi ideali – o‘z Kumushini yaratgan. Adabiyotshunoslikda olib borilgan izlanishlar, tahlil-u talqinlar nafaqat yozuvchining Kumushi, balki har bir tadqiqotchining ham o‘z Kumushi borligini ko‘rsatadi. Talqinlar va taxminlar yozuvchining idealiga qanchalik yaqin borganini hech kim bilmaydi. Yana bir gap. Har bir davrning o‘z ideallari bo‘lgani singari zamonasining Kumushi bo‘ladi va bo‘lishi aniq.

Ijodkor asardagi har bir obrazni tasvirlashda o‘z ruhiyati, tafakkur tarzi, dunyoni anglashidan, simpatiya va antipatiyadan kelib chiqqan holda yondashadi. Ijodkor kechinmalarni obrazga aylantirish jarayonida turli kayfiyatni, holatni boshdan kechiradi, ikkinchidan, ijod ilohiy jarayon. Bu lahzaning o‘zi ijodkor uchun jumboq, sirli hodisa. Ijodkor bu lahzada so‘z bilan ifodalab bo‘lmas, o‘zi anglab bo‘lmas holga tushadi.

Kumush yozuvchi mehr-muhabbatining mahsulidir. Oykumush hikoyasi yozuvchiga otasi Qodirmuhammad bobo tarafidan hikoya qilib berilgan bo‘lib, bu suluv ijodkor tafakkurida avvaldan go‘zallikning timsoli sifatida yashagan. Yillar davomida yozuvchi ko‘nglidagi timsolning modeli o‘laroq Kumushbibi romanning eng go‘zal sahnalarida jonlanadi. Romanning ta’sir kuchi va muallif mahoratining yuksak namunasi sifatida Kumush obrazi ijodkor (xususiy) idealidan xalq (umum) idealga, millat faxriga aylanib ulgurdi.

Estetik ideal ijodkor hayotida tasodif emas. Jamiyat tomonidan qabul qilingan ahloqiy qadriyatlarning o‘ziga xos ifodasi estetik idealda aks etadi. Ideal muallif ijodiy konsepsiyasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Estetik idealning jozibasi asar ta’sirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Estetik idealning to‘laqonli suratda aks etishi roman badiiyatini ta’minlovchi poetik vositalardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Estetik idealning xiraligi asar badiiyatiga jiddiy ta’sir qiladi va muallif maqsadini to‘liq amalga oshishiga monelik qiladi. Prototip va estetik idealni bir-biriga bog‘liq tarzda o‘rganish adabiyotshunoslikda badiiy obraz muammosini tadqiq etish va asar mohiyatiga teranroq nazar solish uchun imkon yaratadi. Estetik ideal muammosini ijodkor shaxsiyati bog‘liqlikda o‘rganish va ijodkor laboratoriyasini ilmiy-nazariy metodlar asosida tadqiq etish adabiyotshunoslik ilmi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. Т., 2004.
2. Борев Ю. Эстетика. Москва. 1981.
3. Қодирий Х. Отамдан хотира. Тошкент. 2005.
4. Қодирий Ш. 37-хонадон. Т;2012., 66-бет.